# Navbatdagi “Hokim va yoshlar” uchrashuvi: Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va faolligini oshirish ustuvor vazifa




Navbatdagi “Hokim va yoshlar” uchrashuvi: Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va faolligini oshirish ustuvor vazifa

Termiz shahrida yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi ishlar natijadorligi va yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida shahar hokimi O‘ktam To‘rayev joylarda yigit-qizlarni qiziqtirgan masalalar, o‘ylantirayotgan muammolarga ijobiy yechim topish choralarini ko‘rmoqda.

Bugun 12-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabida “Gulira’no” va “Bog‘zor” mahallasi yoshlari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda ham yosh avlodning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga

yoʻnaltirish va bandligini taʼminlash, tashabbuslarini ragʻbatlantirishga eʼtibor qaratildi. "Bogʻzor" mahallasidan S.Ravshanovaning farzandini imtiyozli ravishda bogʻchaga joylashtirish, "Yoshlar daftari"da turuvchi S.Ibrigimovaning tikuv mashinasi ajratish, "Gulira’no" mahallasidan X.Zaripovning safarbarlik chaqiruvi rezervi xizmatiga borishi uchun toʻlovni amalga oshirish, 3 nafar yoshlarning bandligini taʼminlash kabi turli yoʻnalishlardagi oʻnlab murojaatlarni hal etish boʻyicha masʼullarga muddat belgilanib, ijrosi nazoratga olindi. Shuningdek, kontrakt toʻlovlarini toʻlashda yordam soʻrab murojaat qilgan yoshlarga tegishli tartibda komissiya hulosasi asosida amaliy yordam koʻrsatilishi belgilandi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

Image not found or type unknown